Ichki yo'llarning trassa rejasi asosida loyihaviy uchastkalarning asosiy parametrlari: ichki yo'llarning umumiy uzunligi - 0,381 km; qatnov qismi soni -2; qatnov qismi eni: 3,5-4,0-7,5 m; suv qochirish novlari (35 LK-1 tipdagi t/b nov)-0,45 m; qatnov qismi ko'ndalang nishabligi-15 ‰ bir tomonlama; ko'tarma yonbag'ir qiyaligi-1:1,5.

Barcha qurilish ishlari transport xarakati to'xtatilgan holda olib boriladi. Yo'l poyi ko'tarmasi uchun grunt loyihaviy o'yma yoki mahalliy kar'erlardan foydalanish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyiha trassa rejasida ichki yo'l poyining ikki turdagi andozaviy ko'ndalang kesimi qabul qilingan va ichki yo'llarning trassa rejasida keltirilgan va tasdiqlangan.

Loyihaviy ichki yo'llar to'shama konstruktsiyasi: Sementbeton qoplama

Qoplama	№ 1:	14,0 sm bo'yicha;	B20 (M250) $F_2$100 markali, quyma sementbeton GOST 26633-2015
			Kompozit armatura 4/4 200/200 ASK 4
Tekislovchi qatlam	№ 2:	3,0 sm aralashmasi;	30% gacha qum aralashtirilgan 5-10 fraktsiyali chaqiq tosh-qum
Asos qatlam	№ 3:	20,0 sm	Qum shag'al arlashmasi GOST 25607-2009 bo'yicha C3-C7;
Yo'l poyi grunti			Qum-shag'al va yirik toshlar bilan to'ltirilgan tuproq qatlami.

Bundan tashqari yo'l to'shamasi konstruktsiyasini loyihalashda yo'lning ahamiyati va funktsiyasi, harakat jadalligi va transport oqimining tarkibi, ishonchliligi va iqtisodiy samaradorligi, maxalliy qurilish materiallarining mavjudligi, qatlamlar sonini kamaytirish sifatini oshirish, qurilish texnologiyasi shuningdek yo'l qurishning va foydalanishning iqlimiy va tuproq-yer osti suvlari xususiyatlari ham inobatga olindi.

Geologik tuzilishi. Joyning relefi past-tekislikdan iborat. O'rganilayotgan hududlarning tuproqlari sho'rlanmagan.

Yer osti suvlari 2,5 m chuqurlikda aniqlangan. O'rganilayotgan qatlamlarda litologik tuzilishi, fizik-mexanik va deformatsiya xossalariga ko'ra quyidagi muhandislik-geologik qatlamlar aniqlangan:

Yo'l poyi tuprog'i - Qum-shag'al va yirik toshlar bilan to'ltirilgan tuproq qatlami.

Yo'l poyi tuprog'i taxminiy qiymatlari. MKN 46-2021 "Qattiq bo'lmagan turdagi qoplamalarni loyihalash bo'yicha ko'rsatmalar";

ichki ishqalanish burchagi gr = 23;

davomi

Asosiy yo'l qurilish ishlarining ketma-ketligi. Ishlar zarur mexanizmlar, mashinalar va agregatlar bilan jihozlangan ixtisoslashgan brigadalar tomonidan muayyan turdagi ishlarning kombinatsiyasini hisobga olgan holda, ilova qilingan jadvalga muvofiq texnologik ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak.

Yo'l qurilish ishlarini zarur mexanizm, mashina va agregatlar bilan jihozlangan ixtisoslashtirilgan guruhlar tomonidan ketma-ket-parallel usulda amalga oshirish rejalashtirilgan.

Asosiy qurilish-montaj ishlarining hajmlari ishchi hujjatlarda belgilanadi va har bir ish turi uchun alohida hajmlarning yig'ma varaqlarida keltirilgan.

Mahalliy karerlarda yer osti qatlami uchun tuproqni ishlab chiqish va yuklash kontsentratsiyalangan tarzda amalga oshiriladi va ekskavator mexanizmi bilan amalga oshiriladi.

Quvurlarni uzaytirishda avtokran etakchi mexanizm hisoblanadi.

Yo'l poyini qurishda asosiy hajmlar buldozerlar, ekskavatorlar tomonidan, yo'l qoplamasining pastki qatlamlarini qurishda esa - avtogreyderlar tomonidan amalga oshiriladi.

Barcha ishlar ixtisoslashgan guruhlar tomonidan amalga oshirilishi lozim.

1-sonli jamoa - tayyorgarlik ishlari va tosh kar'erini rivojlantirish va avtosamosvallarga yuklash;

2-sonli brigada - muhandislik tarmoqlarini o'tkazish va xavfsiz mintaqaga ko'chirish;

3-sonli brigada - kichik sun'iy inshoatlarni o'rnatish;

4-sonli brigada - asos ostki qatlami;

5-sonli jamoa - tekislovchi qatlam;

6-sonli brigada - sementbeton qoplama qurish;

7-sonli brigada - yo'lni jihozlash, shu jumladan yo'l belgilari, yo'l yotiq chiziqlari.

Qurilish materiallari. Andijon viloyati Bobur shahri hududida 120 o'rinli "Yangi avlod" maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini qurish loyihasi obyektining ishchi yo'llarini qurish uchun zarur bo'ladigan asosiy qurilish materiallari 011 yil 31 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va qurilish qo'mitasining 352/11-05 sonli xatining 2 bandiga asosan ichki yo'llarini qurish ishlari uchun zarur bo'ladigan asosiy qurilish materiallari qurilish madoniga tashib kelish qiymati smeta hujjatlarida jami qurilish materiallar va tayyor maxsulotlarining qiymatidan 5% olingan.

Ichki yo'llar qurilishi uchun zarur bo'lgan asosiy qurilishi materiallari yo'lga olib kelinadigan (bevosita ishlab chiqaruvchidan) yarim tayyor va tayyor maxsulotlarni olish man'balari va tashish usullari ko'rsatilgan qaydnomada ishlab chiqarish korxonalari va bazalardan etkazib berish ko'zda tutilgan.

Asosiy yo'l qurilish materiallarini tashib keltirish masofasi o'rtacha hisoblangan. Pudratchi tomonidan kar'er, yo'nalish liniyasi, yoki yo'l qurilish materiallar olish joyi o'zgartirilsa, buyurtmachi va pudratchi qurilish materiallarini tashish masofasi to'g'risidagi dalolatnomani qaytadan tuzishlari lozim.

Kichik sun'iy inshootlarni qurish. Ishni boshlashdan oldin, loyihaga muvofiq quvurning o'qini yotqizish kerak. Belgilash belgilari yer ko'chiradigan va transport vositalarining harakatiga xalaqit bermasligi va ular tomonidan yo'q qilinishi kerak. O'rnatish ishlari boshlanishidan oldin quvur elementlarini yotqizish joyiga o'tkazish kerak. Quvurni yotqizish uchun chuqur mavjud bo'lgan xandaq tipidagi pastki qavatda 0,25 m^3 kovsh sig'imi bo'lgan ekskavator tomonidan ishlab chiqilmoqda. Mavjud sprinkler yonida chuqur qazishda suvni chuqurning chegarasidan tashqariga yo'naltirish kerak.

Maktab binosi qurilishi xududidagi ichki yo'llarini qurish ishlari uchun jami 4 dona kichik sun'iy inshoatlar (quvurlar) loyihalashtirildi.

Sun'iy inshootlar turi «QISHLOQQURILISHLOYIHA» MChJ tomonidan 2016 yilda ishlab chiqilgan «Konstruktsii pokritiya proezda k jilim domam» andozaviy loyihalari asosida qabul qilindi.

Massiv xududida loyihalashtirilayotgan ichki yo'llar uchun 43,5 m met.quvur d-219 mm y-5 mm metall quvurlar o'rnatish ko'zda tutildi.

Sun'iy inshootlarni qurish 3-sonli ixtisoslashtirilgan brigada tomonidan amalga oshiriladi, ular tarkibiga qurilish ishchilari va yo'l mashinalari operatorlari kiradi.

Yo'l poyi. Maktab tashkilotini xududidagi asosiy yer ishlari, qurilishi rejalashtirilayotgan umumta'lim maktabining qurilish uchun ishlab chiqilgan ishchi loyihada mavjud xududni loyihaviy vertikal tekislash asosida ko'tarma va o'yma qurish ishlari inobatga olingan.

Bosh reja loyihasida hududning vertikal rejalashtirilishi GOST 21.508-2020 talablari asosida ishlab chiqilgan. Loyihada ko'rsatilgan balandlik belgilari ichki yo'llar qoplamasining tayyor ustki sathini (beton qoplama yuzasini) ifodalaydi. Ichki yo'llar bosh rejaning tarkibiy qismi bo'lganligi sababli, GOST 21.508-2020 talablariga muvofiq, yo'l to'shamasi (qoplama va asos qatlamlari) qalinligi inobatga olinib, yer sathi tegishli ravishda korrektirovka qilingan, hamda hududni **vertikal rejalashtirish loyiha qismida** ichki yo'l «koritasi» uchun zarur bo'lgan **o'yma qazish va ko'tarma qurish** ishlari hajmlari **to'liq inobatga olingan**.

Ishchi qatlam tuprog'ining zichlanish koeffitsienti qiymati bilan aniqlanadigan zichlik darajasi SHNQ 2.05.02-23 35-36 jadval talablariga asosan.

Yerga ko'chirish mashinalariga bo'lgan extiyoj tuproq ishlari hajmi va materiallarni tashish masofasini hisobga olgan holda mashinalar, transport vositalarining ishlab chiqarish sur'atlariga qarab belgilanadi.

Tuproq ishlari tugagandan so'ng trassa yo'l poyi asosi, tekislovchi va qoplama yotqizish uchun tayyorlanadi.

Gruntlarni zichlash ishlari namligi optimal namlikka yaqin bo'lganda bajariladi. Gruntlarni bosim shinalik katoklar bilan zichlashda, optimal ko'rsatkichi O'z RST 786 orqali aniqlanadi va QR 06.03-23 "Avtomobil yo'llari" qurilish reglamentida keltirilgan ko'rsatkichlardan chetga chiqmasligi kerak.

Bajarilgan tuproq ishlarining sifatini nazorat qilish QR 06.03-23 "Avtomobil yo'llari" qurilish reglamentiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Yangi qurilgan beton qoplamasi loyihaviy mustahkamlikning kamida 70% gacha erishgunga qadar, lekin 7 kundan kam bo'lmagan vaqt davomida parvarishlash ishlari bajarilib, ushbu vaqt davomida transport vositalari harakati cheklanishi lozim.

Beton qoplamalar va asoslar uchun materiallarga qo'yiladigan talablar. Sementbeton qoplamalari va uni tayyorlash uchun materiallar GOST 26633 talablariga javob berishi kerak.

Sementbeton qoplamalari uchun qo'llaniladigan sementlar GOST 10178 va GOST 31108 talablariga mos kelishi kerak. Beton qoplamalarda soxta qotish belgilariga ega bo'lgan sementlardan va harorati 30°S dan yuqori bo'lgan sementdan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Beton qorishmalarida qo'llaniladigan mayda va yirik to'ldiruvchilar maydalanishi (drobimost) va edirilish (istiraemost) bo'yicha markasi, sovuqbardoshligi, donadorlik tarkibi, changsimon va loysimon zarralar miqdori GOST 26633 ning A ilovasi A.2-bo'limi talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

GOST 26633 ga asosan sementbeton qoplamalar qurilishida beton qorishmasining suvga bo'lgan talabini kamaytiruvchi, plastifikatorlar, kerakli miqdordagi havo yoki gazni olish uchun havo hosil qiluvchi, xavo xarorati Q5°S dan past bo'lganda sovuq bardoshlilikni oshiruvchi kimyoviy kushimchalar qo'llanishi lozim.

Beton qorishmasi tarkibini tanlashda kimyoviy qo'shimchalarning maqbul nisbat (doza) lari materiallarning, qabul qilingan texnologiya va beton yotqizish joyida beton qorishmasining xususiyatlari ta'minlanishini hisobga olgan holda laboratoriya sinovlari asosida aniqlanishi kerak.

Beton qoplamasi uchun qo'llaniladigan beton qorishmasining suv- sement nisbati va beton tarkibidagi havo hajmi quyidagi jadvalga asosan qabul qilinadi.

Konstruktiv qatlam	Suv tsement nisbati, ko'pi bilan	Beton qorishmasi Tarkibidagi kiritilgan havo hajmi, %
Bir qatlamli	0,45	5,0-7,0

davomi

Beton qorishmasi tarkibini tanlash (retseptura tuzish) GOST 27006 ga muvofiq laboratoriya usulida amalga oshiriladi.

Beton qorishmasida qo'llaniladigan komponentlar miqdori og'irlik (kg) bo'yicha nisbatlash (dozalash) yo'li bilan amalga oshirilishi kerak. Beton qorishmasiga suvli eritmalar shaklida kiritilgan qo'shimchalarni suv hajmi bo'yicha nisbatlanishi (dozalanishi) mumkin.

Komponentlarning nisbati sement va to'ldiruvchilarning har bir partiyasi uchun, talab etilgan mustahkamlik va harakatchanlikni aniqlash bilan amalga oshiriladi. Komponentlarning nisbati beton qorishmasini tayyorlash paytida sement xususiyati, to'ldiruvchilarning namligi, tarkibi va mustahkamlikni nazorat qilish xususiyatlarini kuzatish ma'lumotlarini hisobga olgan holda maqbullanishi (podbor qilinishi) kerak.

Beton qorishmasini markazlashgan holda, GOST 7473 asosida beton komponentlari (tsement, suv, kimyoviy qo'shimchalar (±1%), to'ldiruvchi (chaqiqtosh, qumlar, ±2%) nisbatini ta'minlay oluvchi beton uzellardan olinadi.

Beton qorishmasining tarkibi, tayyorlash, qabul qilish qoidalari, nazorat usullari va tashish GOST 7473 ga mos bo'lishi kerak.

Sementbeton qoplamasining siqilishdagi mustahkamligi bo'yicha - B20 (250), sovuqqa bardoshliligi bo'yicha - F2 100 (GOST 26633) bo'lishi lozim.

Mahalliy sharoitdan kelib chiqib, hisob-kitoblar asosida ushbu ko'rsatkichlarga aniqlik kiritilishi mumkin.

Sinov laboratoriyasi beton tarkibini tanlashda loyihada belgilangan mustahkamlik parametrlarini (siqilishdagi va egilishdagi cho'zilishi bo'yicha mustahkamligi, sovuqbardoshligi, beton qorishmasining xususiyatlarini saqlab qolish vaktining 1,5 soatdan kam bulmasligini) to'liq ta'minlanishini kafolatlaydi.

Yangi qurilgan beton qoplamasi loyihaviy mustahkamlikning kamida 70% gacha erishgunga qadar, lekin 7 kundan kam bo'lmagan vaqt davomida parvarishlash ishlari bajarilib, ushbu vaqt davomida transport vositalari harakati cheklanishi lozim.

Beton yotqizish texnologiyasi. Shag'al-qum aralashmasidan asos qatlamini qurish va tekislovchi qatlamni yotqizish. Loyihaviy nishablikni ta'minlash maqsadida yo'l poyi asosini lozim darajada tekislash va zichlash ishlari amalga oshiriladi.

Asos qatlamining qalinligi mahalliy sharoitdan kelib chiqib, loyihachi, buyurtmachi va sinov laboratoriyalari bilan kelishilgan holda 20 sm da qalinlikda belgilanadi.

Muqaddam shag'al-qum aralashmasi yotqizilgan ko'chalarda amaldagi zichligi zarur holatlarda esa elastiklik moduli tekshirilib, laboratoriya sinovlari natijasiga asosan, qo'shimcha zichlash, qo'shimcha asos qatlamini yotqizish bo'yicha qaror qabul qilinadi.

Zarur holatlarda (sementbeton qoplama sathining aholi yashash honadonlaridan ko'tarilib ketganda, yo'l poyi mustahkamligini yo'qotganda, yo'l nishabligini ta'minlash zarurati bo'lganda va boshqalar) o'yma (koro'ta) ochilib, asos qatlamini qurish ishlari qayta bajariladi.

Tuproqli yo'llarda mazkur yo'riqnomada nazarda tutilgan asos qatlami bajariladi.

Asos qatlamini qurishda QR 06.03-23 bo'yicha changsimon va loysimon zarralari miqdori 15% gacha bo'lgan, qum miqdori esa kamida 30% ni tashkil etuvchi shag'al-qum aralashmasi qo'llaniladi. Yotkiziladigan tabiiy shagal-qum aralashmasida eng yirik zarralar mikdori 70 mm dan katta bulmasligi lozim. Buning uchun kurilish ob'ektiga saralangan material keltirilishi lozim.

Shag'al-qum aralashmasini yotqizishda aralashma Q10% dan ortiq bo'lmagan og'ish bilan optimallikka yaqin namlikka ega bo'lishi kerak. Agar namlik etarli bo'lmasa, aralashma zichlashdan 20-30 daqiqa oldin namlanishi lozim.

Beton qoplamasi mavjud asosga yotqizilganda, asos qatlamining amaldagi egilish moduli tekshirilib, yo'l to'shamasi konstruktsiyasini hisoblashda inobatga olinadi. Mavjud asosning egilish moduli talab etilgan qiymatlardan kam bo'lgan taqdirda, shag'al-qum aralashmasidan qo'shimcha qatlam yotqiziladi.

Asos qatlami katoklar yordamida QR 06.03-23 ning 7.36-bandi talablariga muvofiq zichlanadi.

Tekislovchi qatlam asos qatlami yuzasidagi notekisliklarni bartaraf etish, koplamaning bir xil qalinligini ta'minlash, harorat o'zgarganda qoplama plitalarining harakatini ta'minlash, transport vositalari harakatidan tushadigan bosimni teng ravishda taqsimlash, plitalardagi kuchlanishlarni kamaytirish uchun mo'ljallanadi.

Mavjud shag'allangan yo'llar avtogreyder yordamida ko'ndalang va bo'ylama profili to'g'rilanib, tekislovchi qatlam sifatida chaqiqtosh-qum aralashmasi yotqiziladi.

Tekislovchi qatlam 5-20 mm fraktsiyali chaqiqtoshga 30% gacha qum aralashtirilgan chaqiqtosh-qum aralashmasining hajmi o'rtacha 3 sm kalinlikdan kelib chikib hisoblanadi. Aralashama asos usti qo'l yordamida tekislanadi.

Chaqiqtosh-qum aralashmasi tekislovchi qatlam materiali optimal namlikning 70% dan kam bulmagan mikdorda namlanishi kerak. Beton qorishmasidagi namlik tekislovchi qatlamiga so'rilib ketmasligi uchun yotqizishdan avval, ko'llatib suv sepiladi.

Tekislash ishlari jarayonida geodezik o'lchovlar amalga oshiriladi.

Qoliplarni o'rnatish. Qoplamaning chetiga qolip sifatida qoziqlar bilan mustahkamlangan metall shvellerdan foydalaniladi. Istisno tarikasida qalinligi 40 mm bo'lgan taxtalardan foydalanish mumkin.

Qoliplarning birlashish joylarida tekislovchi qatlam ustiga yog'och (podkladka) pona o'rnatiladi. Ponalar atrofidagi qum tekislanadi, zichlanadi, so'ngra pona ustiga qolip (shveller, taxta) o'rnatiladi, metall qoziqlar yordamida mahkamlanadi. Qolipning tashqi tomonida ishonchli tirgak hosil qilish uchun eni kamida 20 sm bo'lgan tuproq uyumini (valik) yotqizish tavsiya etiladi.

Qolipning yuqori qirralari tekis va silliq bo'lishi kerak. Shablon va vibroreykaning harakatlanishiga halaqit bermasligi uchun qoziqlarning yuqori uchi qolipning yuqori satxidan pastda bo'lishligi kerak. Qoliplarning birlashish (stik) joyidagi sathlar farqi 2 mm dan oshmasligi kerak.

Beton qorishmasini yotqizishdan oldin, qolipning ichki qirralari texnik moy bilan yog'lanadi.

Qoliplar o'rnatish ishlari to'liq yakunlangandan so'ng nivelir yordamida nazorat o'lchovi bajariladi.

Sementbeton qoplamani yotqizish. Beton qorishmasi GOST 7473 talablariga mos kelishi va yotqizish vaqtidagi harakatchanligi P1 (OK 1-4 sm) bo'lishi kerak.

Beton qorishmasini yotqizish ishlari havo harorati Q5°S dan Q30°S gacha bo'lganda bajariladi. Havo harorati Q30°S dan yuqori, nisbiy namlik esa 50% dan kam bo'lganda beton yotqizish ishlarini kunning kechki vaqtlarida bajarish tavsiya etiladi.

						Buyurtmachi: O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi	
						Andijon viloyati Bobur shahri hududida 120 o'rinli "Yangi avlod" maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini qurish loyiha bosh rejasi	
O'lch.	Miqd.	Varaq	Hujj.№	Imzo	Sana		
						Ichki yo'llarni qurish loyihasi	Bosqich: IL; Varaq: 18; Varaqlar:
LBM:			Maxmadiyorov				
Bo'lim boshlig'i:			Xusanov				
Bajardi:			Saidov				
2-toifali loyihalovchi muhandis:			Nurmatov			Qurilishni tashkil etish loyihasi, boshi	"QISHLOQQURILISHLOYIHA" Bosh loyiha instituti DM Toshkent sh. 2026 y.
Me'yoriy hujjat nazorati:			Shamuradov				

O'zgargan nusxa-ning inventar raqami

Imzo va sana

Asl nusxaning inventar raqami

Format A2

davomi

Beton qorishmasini ob'ektga tashib kelish vaqti havo harorati Q20°S dan Q30°S gacha bo'lganda 30 daqiqadan, Q20°S dan kam bo'lganda 45 daqiqadan, beton chiqarilgandan so'ng, yotqizib zichlanishga ketadigan umumiy vaqt esa 1,5 soatdan ortiq bo'lmasligi lozim.

Tashish vaqtida havo harorati Q25°S dan yuqori bo'lganda beton qorishmasi tashqi muhitdan himoya qilinishi va tarkibidagi namlikning bug'lanishidan saqlovchi maxsus material bilan yopilishi kerak.

Beton qorishmasi avtosamosvallarda tashiladi.

Beton qorishmasiga maxsus mineral qo'shimchalar (zolo-unos, mikrokremnezem, giperplastifikator va boshqa) qo'shib, suv tsement nisbatini 0,45 dan oshirmagan holda, qulay joylashuvchanligini P1 dan pasaytirmagan holda maxsus avtotransport vositalarida tashib kelinishi mumkin. Bunday hollarda beton qorishmasining loyihaviy mustahkamligi va sovuqbardoshliligi laboratoriya sinovlari bilan tasdiqlanadi.

Beton qorishmasi keltirilib tushirilgandan so'ng mexanizmlar (pogruzchik, ekskovator) yordamida yoki qo'l kuchi bilan tarqatilib tekislanadi.

Yotqizilgan beton qorishmasi kichik mexanizmlar (vibroreyka va chuqur vibratorlar) yordamida qoplama yuzasiga ishlov berilib qoplamaning loyihaviy ko'rsatkichlari va profiliga keltiriladi. Bunda, yotkizilgan beton qorishmasi dastlab chuqur vibratorlar bilan zichlanadi.

Yotqizilgan beton qorishmasini vibroreyka yordamida tekislashda vibroreyka oldida ishchilar beton qorishmasining etishmagan joyini to'ldiradi yoki ortiqcha qismini olib tashlaydi.

Agar vibroreyka o'tgandan so'ng, qoplama yuzasida chuqurchalar va qobiqlar paydo bo'lsa, bu joylarga beton qorishmasi qo'shiladi va qoplamaning yuzasi vibroreyka bilan qayta ishlanadi.

Qoplamaning tekisligi 3 m uzunlikdagi reyka bilan tekshiriladi, u bir necha joylarda qoplamaning bo'ylama o'qiga parallel ravishda qoplamaga o'rnatiladi. Joylarda: reyka ostidagi bo'shliqlar 5 mm dan oshsa, tsementobeton aralashmasi qo'shiladi va vibroreyka hamda yuzani tekislash mashinasi yordamida ishlov berish takrorlanadi.

Beton yotqizilganidan 1-2 soat o'tgandan so'ng qoplamaning yuzasi yuzani tekislash mashinasi bilan silliqlanadi va tayyor qoplama yuzasiga neylon hetka yordamida g'adir-budurlik (sheroxovatost) hosil qilinadi. Qoplama yuzasiga va qirralariga ishlov berilganda hamda choklar ochilganda betonni suv bilan namlashga yo'l qo'yilmaydi.

Betonning qotish jarayonida va parvarish qilish uchun qoplamaning tayyor maydoni to'siqlar va ogohlantirish belgilari bilan to'silishi kerak.

Beton qorishmasi yotqizish ishlari tungi vaqtlarda bajarilganda yoritish chiroqlari bilan, shuningdek, barcha kichik mexanizmlarni ishlatish uchun etarli kuchlanishga ega bo'lgan generatorlar bilan ta'minlanishi lozim.

Qoliplar havo haroratiga qarab 8-24 soatdan keyin olib tashlanadi. Dastlab temir qoziqlar olib tashlanadi, so'ngra qoliplarni beton qoplamadan ehtiyotkorlik bilan ajratib olinadi va qoplamaning yon qirralari nam qum bilan qoplanadi. Qoliplar olib tashlanadi, tozalanadi, yangi yotqizish joyiga ko'chiriladi.

Joylardagi tuproqlarning geologik xususiyatlaridan kelib chiqib zamin asoslari zaif bo'lgan (erosti sizot suvlarining sathi baland bo'lgan, bo'sh tuproq, qumloq va sh.k. joylarda) hududlarda, shuningdek inert materiallar tanqis bo'lgan hududlarda, beton qoplamaning mustahkamligini oshirish maqsadida geosetka, geotekstil, fibra va bazalt tolali hamda boshqa polimer materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Yerosti sizot suvlarining sathi baland, tuproq sho'rlanishi yuqori bo'lgan hamda tsementga agressiv gruntlar bo'lgan hududlarda tsementbeton qoplamalarni yotqizishdan oldin asosning yuqori qismiga GOST 10354 bo'yicha V (V1) markali, qalinligi 0,3-0,4 mm bo'lgan polietilen plyonka qoplash maqsadga muvofiqdir.

Beton qoplamasida kengayish choklarni qurish va deformatsion choklarni ochish. Yo'ldan foydalanish davrida yuzaga keluvchi buzilishlarni oldini olish maqsadida har bir beton yotqizilgan uchastkada ko'ndalang ishlaydigan deformatsion choklar ochiladi. Havo haroratiga qarab, beton qoplamasi yotqizilgandan so'ng 24 soatdan oshmagan vaqt ichida choklarni kesish uskunasi yordamida, eni 3 mm dan kam bo'lmagan deformatsion choklar ochilishi kerak. Deformatsion choklar bo'ylama o'qga perpendikulyar bo'lgan bitta to'g'ri chiziqni hosil qilishi kerak.

Qoplamaning deformatsion choklarini kesish jarayoni beton yuzasi kesilganda titilib ketmaydigan holatda (siqilishdagi mustahkamligi 8,0- 10,0 MRa ga etganda) har 4 m da va qatnov qismi kengligi 4,5 m dan katta bo'lgan holatlarda bo'ylama deformatsion choklari (qoplama umumiy qalinligining 1/3 qismi chuqurligida) ochiladi.

Choklar ochilgandan so'ng chang va begona narsalardan va qoplama toshlaridan tozalanadi.

Kengayish choklariga suvda namlangan yumshoq yog'ochdan (yoki penoplast, penopleks va sh.k.) yasalgan 3 sm qalinlikdagi, tsementbeton qoplamasi ichida qoladigan taxtalar qoplamaning butun qalinligi bo'yicha o'rnatiladi. Kengayish choklari yo'lning har 40 m dan oshmagan masofada hamda ko'chalarning kesishuvi joylarida qurilishi lozim.

Beton qoplamasini parvarish qilish.

Beton qoplamasini parvarish qilishda, beton qorishmasining tez namsizlanishi oldini olish maqsadida polietilen plyonkasi, bo'z, yoki boshqa qoplovchi materiallar qo'llanilgan holda qoplama usti yopiladi, qatlam qalinligi 2 sm dan kam bo'lmagan namlangan qum to'shalishi yo'li bilan amalga oshiriladi.

Beton qoplamasining parvarishlash davrida to'siqlar va ogohlantiruvchi belgilar bilan o'ralishi kerak.

Beton qoplamasining parvarishlash davrida betonning namlik darajasi kuzatib borilishi va namligi kamayganda beton usti namlab turilishi lozim bo'ladi.

Beton loyihada belgilangan mustahkamlikning 70% ni egallagandan so'ng (kamida 7 sutka davomida) usti ochib tashlanishi hamda ko'cha engil avtotransport qatnovi uchun ochilishi mumkin. Bunda yuk mashinalarining harakatlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sifatga qo'yiladigan asosiy talablar. Asos qatlamining zichlanganligi QR 06.03-23 ning 7.36-bandiga muvofiq baholanadi.

Beton qorishmasini tayyorlashdagi nazorat ishlari. Beton qorishmasini tayyorlashdagi nazorat ishlari beton qorishmasini ishlab chiqaruvchi korxonaning sinov laboratoriyasi yoki shartnoma asosida jalb etilgan laboratoriyalar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda:

beton qorishmasini tayyorlashda texnologik rejimlarga rioya etilishi (doimiy);

beton qorishmasining qulay joylashuvchanligi va kiritilgan havo hajmi, kimyoviy qo'shimchalarning kontsentratsiyasi, nisbati (dozirovkasi), (smenada kamida bir marta yoki qorishma sifati o'zgarganda) GOST 10181 bo'yicha;

yirik va mayda to'ldiruvchilarning namligi (smenada kamida bir marta, shuningdek yog'ingarchilik holatida ham tekshiriladi) GOST 8269.0 va GOST 8735 bo'yicha;

beton qorishmasi komponentlari nisbati (dozalash) aniqligi (qorishma sifatida jiddiy o'zgarish bo'lganda yoki buyurtmachining ko'rsatmasiga asosan) nazorat ishlari olib boriladi.

betonning sovuqbardoshligi (tanlangan tarkib loyihasini ishlab chiqishda, hamda burtmachining talabiga binoan zarur hollarda) GOST 10060- 2012 bo'yicha;

Beton qorishmasining kirish nazorati pudratchi tashkilot tomonidan shartnoma asosida jalb etilgan laboratoriya tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, kamida uchta kubsimon namunalar orqali kirish nazorati tartibida betonning siqilishdagi mustahkamligi (smenada kamida bir marta) GOST 10180-2012 bo'yicha tekshiriladi.

Beton qorishmasini yotqizish vaqtidagi nazorat ishlari. Beton qorishmasini yotqizish vaqtidagi nazorat ishlari buyurtmachining texnik nazorati, loyiha tashkilotining mualliflik nazorati hamda pudratchining ichki nazorati doirasida amalga oshirib boriladi. Bunda:

qorishmani yotqizish, choklarni kesish, parvarishlash, choklarni germetizatsiya qilish bo'yicha ishlarni bajarishda texnologik rejimga amal qilinishi, shuningdek qoplama yuzasining tekisligi, chetlaridagi g'ovaklarning yo'qligi (doimiy - loyiha tashkilotining mualliflik nazorati va pudratchining ichki nazorati);

qorishmaning harakatchanligi va kiritilgan havo hajmi (smenada kamida bir marta va qorishmaning sifati betonlash joyida o'zgarganda) GOST 10181 bo'yicha (pudratchining ichki nazorati va jalb qilingan laboratoriya).

Beton qorishmasini yotqizish vaqtida pudratchining kirish nazorati (vxodnoy kontrol) alohida o'rin tutadi. Bunda, maydonchaga kirib kelayotgan beton qorishmasining har bir partiyasidan GOST 10181 bo'yicha beton kubik na'munalari olinib, qorishmaning konusi cho'kishi aniqlanishi lozim.

Sementbeton qoplamaga qo'yiladigan asosiy talablar. Sementbeton qoplamaning yuzasi tekis, ilashimli (sheroxovatost), bo'shliqlarsiz, qoplamaning qirralari va choklarning qirralari oval shaklga ega bo'lishi, qoplamaning yon yuzalarida g'ovaklar bo'lmasligi kerak.

davomi

Loyihaviy o'lchamlardan ruxsat etilgan og'ishlarga yo'l kuyiladi:

qoplamaning eni bo'ylab ±5 sm;

qalinligi bo'ylab ±10%;

ko'ndalang og'ishi bo'ylab ±0,5%.

Betonning siqilishdagi mustahkamligi (GOST 28570 bo'yicha) hamda qoplamaning qalinligi har bir ko'chadan kamida uchta kern namunasini olish bilan aniqlanishi. Namuna olinadigan kernlar orasidagi masofa 200 m dan oshmasligi kerak. Kern namunalari qoplamaning chetidan kamida 0,5 m masofada olinib, har bir namuna alohida laboratoriya sinovlari natijalariga asosan baholanadi.

Yotqizilgan beton qoplamasining siqilishdagi mustahkamligi beton qoplamasi yotqizilgandan so'ng 28 sutka o'tgach konstruktiv qatlamning o'zidan kern olib tekshirish yo'li bilan baholanadi.

Belgilangan mustahkamlik parametrlari bajarilmagan taqdirda, qoplamani kuchaytirish yoki buzib qayta qurish to'g'risida loyiha tashkiloti, buyurtmachi va laboratoriya mutahassislari tomonidan qaror qabul qilinadi.

Betonning egilishdagi cho'zilishi bo'yicha mustahkamlik sinfi GOST 10180 ga muvofiq kern namunalarining siqilishdagi mustahkamligiga 0,12 koeffitsientni qo'llagan holda aniqlanadi.

Baxsli holatlar vujudga kelganda betonning sovuqbardoshligi bo'yicha markasi qoplamaning o'zidan kern olish yo'li bilan GOST 10060 ga muvofiq aniqlanadi.

Texnika xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalar. Vibratorlar va vibroreykalar bilan ishlaydigan ishchilar elektrlashtirilgan asboblardan foydalanishga o'qitilgan bo'lishi va texnika xavfsizligi qoidalarini yaxshi bilishi shart.

Elektr stantsiya punktlari bilan transformator ko'chaytirgichlari va elektr vibratorlarni bog'laydigan simlar izolyatsiyalangan bo'lishi kerak. Elektr kabelining ta'siri yoki uzilishi, vibratorlarning shikastlanganda ishchilar bu haqida darxol elektrik yoki energetikni ogoxlantirish kerak. Ish joylarida ish xavfsizligini ta'minlash uchun ogoxlantiruvchi belgilar va to'siqlar o'rnatilishi kerak.

Kechki smenada ish joyi yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak.

Beton yotqizish ishlariga jalb etilgan ishchi xodimlar maxsus kiyim-boshlar va himoya vositalari bilan tash'minlanishi lozim.

Ish jarayonini tashkil qilish. Harakat chorrahalarida sementbeton qoplamani yotqizish ishlari bosqichma-bosqich bajarilishi rejalashtirilgan bo'lib, ularda quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

a)tekislovchi qatlamining joylashtirish va qoliplarni o'rnatish; b) sementbeton qoplamani yotqizish va pardozlash ishlari;

v)qoliplarni yechib olish va qoplama chetini nam qum bilan to'ldirish.

Zarur asbob-anjomlar (kengaytiruvchi choklar va ishchi choklarni kesuvchi uskunalar, asboblar to'plami va kichik mexanizmlar (vibroreykalar, vibratsiyali andava (gladilka), chuqur vibratori, yuzani tekislash mashinasi, generatorli yoritish chiroqlari, generator va shablonlar) va materiallar (shveller qoliplar va ularni mahkamlash uchun temir qoziqlar, qoliplarni moylash uchun materiallar, beton qoplamani yopish uchun qum, ko'chma taxta ko'prik va b.) ish joyida to'planadi.

Ish joyi yaqinida ishchilarning dam olishi va noqulay ob-havodan panoh topishi uchun vagonlar, asbob-uskunalarni saqlash uchun quti, texnik hamda ichimlik suvlarini saqlash uchun suv idishlari, birinchi yordam ko'rsatishga zarur bo'lgan dori-darmonlar to'plami bilan to'ldirilgan tibbiy yordam qutisi joylashtiriladi.

Tekislovchi qatlamni joylashtirish va qoliplarni o'rnatish quyidagi tarkibdagi brigada tomonidan amalga oshiriladi:

toifali betonchi - 1 nafar; 2-toifali betonchi - 2 nafar.




Chaqiqtosh-qum aralashmasi tekislovchi qatlamini zichlash va beton qoplamasi yotqizish ishlari quyidagi tarkibdagi brigada tomonidan amalga oshiriladi:

toifali betonchi - 2 nafar; 3-toifali betonchi - 4 nafar; 2-toifali betonchi - 3 nafar;

1-toifali yo'l ishchisi - 2 nafar;


toifali elektrostantsiya mashinisti 1 nafar.

Ichki ko'chalarning sementbeton qoplamalarini qurish bo'yicha texnologik xarita. (beton yotqizgich komplekslari yordamida).

Ish turlari	Piketajni belgilab chiqish, qoziqchalarni va kopir simlarni o'rnatish	Sementbeton qorishmasini yotqizish	Qoziqchalar va kopir simlarniechib olish
Yo'nalish sxemasi			
Bir smenada zaxvatka uzunligi, m	108	108	108
Mashinalar, mexanizmlar	Bortli avtomobil5 t li - 1 dona, generator – 1 dona	Beton yotkizgich kompleksi - 1 dona. Ekskavator 1,0-1,2 m^3 - 1 dona. Suv tashish mashinasi - 1 dona. Avtosamosval – xisob kitobga ko'ra	Bortli avtomobilko'tarish yuk vazni 5 t li— 1 dona
Zveno tarkibi	Geodezist — 1 nafar yo'l ishchilari: 4 raz. — 1 nafar. 3 raz. —1 nafar. 2 raz. —1 nafar. 1 raz. —1 nafar.	Operator 5 raz. - 1 nafar. Ekskavator mashinisti 5 raz. - 1 nafar. Suv bilan yuvish mashinasi mashinisti 5 raz. - 1 nafar. Betonchi brigadir - 6 raz. - 2 nafar. Yo'l ishchilari: 4 raz. — 1 nafar. 2 raz. — 12 nafar.	Yo'l ishchilari: 2 raz. — 1 nafar. 1 raz. — 1 nafar.

davomi

Beton qoplamasini yotqizishda qo'llaniladigan kichik mehanizmlar ro'yxati.

№	Ko'rinishi	Nomlanishi	Soni
1		Vibroreyka	1 dona
2		Vibratsiyali andava (gladilka)	1 dona
3		Chuqur vibratori	4 dona
4		Yuzani tekislash mashinasi	1 dona
5		Neylon shyotka	1 dona
6		Choklarni kesish uskunasi	1 dona
7		Generatorli yoritish chiroqlari	1 dona
8		Generator	1 dona

						Buyurtmachi: O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi	
						Andijon viloyati Bobur shahri hududida 120 o'rinli "Yangi avlod" maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini qurish loyiha bosh rejasi	
O'lch.	Miqd.	Varaq	Hujj.№	Imzo	Sana		
LBM:		Maxmadiyorov				Ichki yo'llarni qurish loyihasi	Bosqich: IL; Varaq: 19; Varaqlar:
Bo'lim boshlig'i:		Xusanov					
Bajardi:		Saidov				Qurilishni tashkil etish loyihasi, davomi	"QISHLOQQURILISHLOYIHA" Bosh loyiha instituti DM Toshkent sh. 2026 y.
2-toifali loyihalovchi muhandis:		Nurmatov					
Me'yoriy hujjat nazoratchi:		Shamuradov					

O'zgargan nusxaning inventar raqami

Imzo va sana

Asl nusxaning inventar raqami

Format A2

Qurilish kalendar grafigi

№	Ish nomi	O‘lchov	Miqdor	Mehnat sarfi (kishi-kun)	Talab etiladigan mashinalar	Mash-smena	Davomiylik (kun)	Smena	Ishchi / smena	Brigada tarkibi	Ishlar grafigi
1	Tayyorlov ishlari (geodezik)	km	0,381	2	Avtomobil	1	1	1	2	Geodezist-2	kun
2	Temirbeton novlarni o‘rnatish	p.m.	286,0	12	Avtokran, yuk avtomobili	3	3	1	4	Montajchi-4	
3	Temirbeton yo‘l hoshiya toshi	p.m.	45,0	3	Beton qorish moslamasi	1	1	1	3	Yo‘l ishchisi-3	
4	Shag‘al-qum asos (20 sm)	m²	1368,861	10	Avtogreyder, katok	3	2	1	5	Yo‘l ishchisi-5	
5	QMQA (5–20 fr, 3 sm)	m²	1368,861	6	Katok	2	1	1	4	Yo‘l ishchisi-4	
6	Kompozit armatura ASK-4	m²	1298,957	5	Qo‘l mehnati	1	1	1	4	Armaturachi-4	
7	B20 sementbeton (14 sm)	m²	1368,861	15	Beton nasosi, avtobeton aralashtirgich	4	3	1	6	Betonchi-6	
8	Beton parvarishi	m²	1368,861	3	Suv tashuvchi avtomobil	1	3	1	2	Ishchi-2	
9	Yo‘l yotiq chiziqlarini chizish	p.m.	60,5	1	Yo‘l belgilash moslamasi	1	1	1	2	Yo‘l ishchisi-2	
	JAMI			**57 kishi-kun**		**16**	**16 ish kuni**				

Qurilish kalendar grafigida keltirilgan qurilish obektini boshlanish oyi shartli ravishda keltirilgan. Bosh pudratchi tashkiloti tanlov asosida aniqlanganidan so'ng ob'ekt qurilish ishlarini boshlaniy oyi va muddatlari pudratchi tomonidan ishlab chiqiladigan qurilishni tashkillashtirish loyihasida aniqlik kiritiladi.

Qurilish muddati. Qurilishning davomiyligi etti kunlik ish haftasini tashkil etish shartlaridan kelib chiqqan holda, tartibda va smenali ish usullarida belgilanadi. Oyiga o'rtacha ish kunining davomiyligi 26 kun, ish kunining o'rtacha davomiyligi - 1 smena.

Ish hajmlarni 1 dona etakchi mexanizm ish xajmiga va 1 smena uchun keltirilgan. Etakchi mexanizmlar sonini va kunlik smenani oshirish hisobiga qurilish middatini qisqartirish mumkin.

Asosiy yo'l qurilishi ishlarining davomiyligi asosiy haydovchi mashinalari va mexanizmlarining mehnat xarajatlari, asosiy qurilish-montaj ishlarining hajmi va murakkabligi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

Qurilish davomiyligini belgilashda havo harorati past bo'lgan yil davrlari, shuningdek, kunduzgi tashqi havo harorati ham hisobga olinadi.

Yo'l qurilishining umumiy davomiyligi batafsil loyihaning manba jadvalidagi ma'lumotlarga muvofiq 16 kun bilan belgilanadi.

						Buyurtmachi: O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi
						Andijon viloyati Bobur shahri hududida 120 o'rinli "Yangi avlod" maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini qurish loyiha bosh rejasi
O'lch.	Miqd.	Varaq	Hujj.№	Imzo	Sana	
LBM:		Maxmadiyorov				Ichki yo'llarni qurish loyihasi
Bo'lim boshlig'i:		Xusanov				Bosqich: IL; Varaq: 20; Varaqlar:
Bajardi:		Saidov				Qurilishni tashkil etish loyihasi, oxiri
2-toifali loyihalovchi muhandis:		Nurmatov				"QISHLOQQURILISHLOYIHA" Bosh loyiha instituti DM Toshkent sh. 2026 y.
Me'yoriy hujjat nazorati:		Shamuradov				

O'zgargan nusxa-ning inventar raqami	
Imzo va sana	
Asl nusxaning inventar raqami	

Format A2